



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 278 sahifa,
1-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

- Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	10
Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi	
Talabalarning xulqidagi devyatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar.....	16
Ergashev Jo'rabek Xalilovich	
Zo'ravonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'ravonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari.....	19
Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi	
Tinglab tushunish kompetensiyasining psixolingvistik va pedagogik asoslari.....	24
Jonbo'tayeva Maxarramxon	
O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'rni.....	27
Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish.....	31
Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdo Ashirqul qizi	
Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish.....	35
Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li	
O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	39
Norbutayeva Dilafuz Abdurasulovna	
Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....	43
Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna	
Model for Improving Students' Professional Competencies Based on Motivational Learning Approach.....	49
Alibekova Mahzuna	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkurini shakllantirishning tuzilmasi va pedagogik komponentlari... 54	54
Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich	
Yengil atletika bilan shug'ullanuvchi 14-16 yoshli sportchi qizlarda mashg'ulotlar davomiyligi.....	59
Oralova Bibixol Husniddin qizi, G'ulomova Maftuna Sayfulla qizi	
Boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatish.....	64
Ruzmetova D. A.	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining axloqiy faoliyatini shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlari.....	68
Saydanova Dilafuz Sadirdinovna	
Xorijiy tajribalar va zamonaviy yondashuvlar asosida tyutorlar kasbiy salohiyatini rivojlantirishda malaka oshirish tizimini takomillashtirish.....	75
Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich	
Effective Classroom Activities for Developing Speaking Skills Among EFL Learners.....	79
Akhmatova Munisa Orif qizi	
Xalqaro va milliy baholash dasturlarini hisobga olgan holda boshlang'ich ta'lim mazmunini yangi ta'lim trendlari bilan boyitish.....	86
Gulmira Abdullayeva, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi	
Ijtimoiy tarmoqlarning shaxs identifikatsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik omillari.....	90
Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna	
Analysis of the Methodology for Developing Students' Creative Thinking Competence Using Artificial Intelligence Tools Based on STEAM Educational Technologies.....	94
Tursunaliyeva Nazokat Tokhir qizi	



Oliy ta'lim muassasalarida e-Portfolio ma'lumotlarini markazlashmagan tarzda boshqarishning afzalliklari va muammolari	102
Yusupova Dono Adambayevna, Jalolov Tursunbek Sadriddinovich	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv-tolerantlik haqidagi qarashlari tahlili	110
Amangeldiyeva Adolat Ravshanbek qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashning samarali shakl, metod va didaktik vositalari	115
Go'zal Qurbonova	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarb pedagogik masalalari.....	121
Muratova Munavvar O'rol qizi	
Tarkibida toponimlar mavjud maqol va matallarning lingvomadaniy xususiyatlari va ularni o'qitishning lingvodidaktik asoslari.....	126
Usmonova Zamira Jaxongirovna	
Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda tassavur fenomenologiyasi	130
Axmedova Shaxlo Shoxob qizi	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (haykaltaroshlik san'ati misolida).....	133
Panayeva Maloxat Muminovna	
Взаимосвязь склонности к сравнению внешности, интернет-зависимости и уровня притязаний у студентов-юношей	136
Багдасарова Диана Левоновна	
Роль каракалпакской народной национальной музыки в формировании духовно-нравственных качеств учащихся	141
Зарымова Турсынай Бердибай кызы	
A Review of the Literature on Stem Cells in Dentistry	145
Ruziyeva Kamola Akhtamovna	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida estrada san'atini o'qitish masalalari (gitara cholg'usi misolida)	150
Abdullayev O'tkir Sadullayevich	
Talabalarda innovatsion kasbiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari	154
Avezov Davronbek Soburovich	
O'zbek xalq pedagogikasi an'alarining zamonaviy ta'lim tizimidagi transformatsiyasi	158
Erkaboyeva Nigora Shermatovna	
Texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarida ingliz tilini mustaqil o'rganishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	163
Mamatqodirova Gulnigor Rustamjonovna	
Yangi dunyoviy tartibotning shakllanishi jarayonida siyosiy taraqqiyot barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash muammolari	168
Nazarov Alisher Narimanovich	
Ota-onasiz tarbiyalanayotgan o'smir o'g'il bolaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.....	171
Qodirov Jahongir Neymat o'g'li	
Kutubxona muhitida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning innovatsion modellari.....	176
Qosimova Xolida Nabiyevna	
Jismoniy imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy harakatli o'yinlar orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish	179
Raxmatullayeva Durdoni Fazliddin qizi	
Personalized Approach to the Treatment of Generalized Periodontitis in the Prediction of Cardiovascular Complications Based on Salivary Proteomic Profiling.....	182
Shodiev O. U., Nazarova N. Sh., Agababayan I. R.	
O'smirlarda irratsional ustanovkalar shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari	187
Toshboltayeva Nodira	
Роль интерактивного лингвокультурологического пространства в формировании лингвокультурной компетенции студентов национальных групп филологических направлений.....	191
Рустамова Ферузахон Махмуджановна	



Talabalarining darsdan tashqari vaqtda mustaqil ravishda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishini shakllantirish	196
Dusanov Shuxrat Abdiraakovich	
Kutubxona muhitida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning innovatsion modellari	201
Qosimova Xolida Nabiyevna	
Jismoniy tarbiya darslarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetensiyasini takomillashtirish mexanizmlari	205
Xoliqnazarov Azamat Begaliyevich	
Oliy ta'lim talabalarida kreativ fikrlashni fanlararo integratsiya asosida shakllantirish	209
Allanazarova Dilobar Baxromovna	
"Alpomish" dostonida obrazlar nutqidagi pedagogik qarashlar	213
Boboqulova Aziza Adizovna	
Researching the Biochemistry and Physical Chemistry of Oral Fluid in Kids Who Are Acting Strangely	217
Eraliyeva Zulfiya Makhmudovna, Buzruzkoda Javohir	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mikro matnlarni o'qitishga qaratilgan kognitiv metodlar	222
I. Matrasulova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishda raqamli didaktik vositalardan foydalanish metodikasi	225
Komilova Dilnozaxon Abdulhayevna, Xoliqova Mubinabonu Jamoliddin qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida onomastik leksikani lingvokulturologik yondashuv asosida o'qitishning strategik-metodik asoslari	229
Mamatqulova Baxtixon Ravshanovna	
Raqamli matnlarning lisoniy va pragmatik xususiyatlari	232
Mashrapova Sevara Xabibovna	
Extensive Pelvic Ureteral Abnormalities and Reconstructive Operations in Patients	237
Mukhsinov Sardor	
Pedagogikada metodlardan foydalanish	241
Maxmudova Nargiz Djumaniyazovna	
Diqqat yetishmasligi giperaktivlik buzilishini davolash usullari	245
Otbasarova Umida Mexmonovna, Inogamova Rano Bahodirovna	
Talabalardagi sanogen tafakkurning psixologik xususiyatlarini empirik tadqiq etish masalasi	249
Tulyaganova Dilnoza Ulug'bek qizi	
Raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning xorijiy va milliy tajribasini qiyosiy tahlil qilish	253
Abdullayev Sherzodbek	
Context, Intention, and Meaning in English Language Teaching: Developing Pragmatic Awareness in Learners of English as a Foreign Language	256
Keldiyarova Shakhriyoz, Keldiyarova Mohlaroyim	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni steam yondashuvi yordamida og'zaki muloqotga o'rgatish mashqlar tizimi	267
Yunusova Malika Miralimovna	
Культурные и исторические коды франции в автобиографической прозе марселя паньоля	270
Рахманкулова Дилафруз Азимовна	
Трансформация роли преподавателя в условиях цифровизации высшего образования	274
Рахматова Нигина Исломовна	

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARINI MIKRO MATNLARNI O'QITISHGA QARATILGAN KOGNITIV METODLAR

I. Matrasulova

UrDPI 1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mikro matnlarni o'qitishga tayyorlashda kognitiv metodlarning ilmiy-pedagogik ahamiyati yoritiladi. Mikro matnlar bilan ishlash jarayonida talabalarning, kelgusida esa boshlang'ich sinf o'qituvchilarining idrok etish, tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, axborotni transformatsiya qilish va mazmuni qayta qurish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlar tahlil qilinadi. Shuningdek, o'zbek va xalqaro pedagog olimlarning kognitiv yondashuv hamda metakognitiv strategiyalar borasidagi ilmiy qarashlari tizimlashtirilib, mikro matnlarni o'qitishning pedagogik imkoniyatlari, xalqaro baholash dasturlari (PIRLS va PISA) talablari bilan uyg'unligi hamda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-metodik kompetensiyalarini shakllantirishdagi o'rnini ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi.

Kalit so'zlar: kognitiv metodlar, metakognitsiya, mikro matn, boshlang'ich ta'lim, PIRLS, o'qish savodxonligi, kognitiv kompetensiya, grafik organayzerlar.

Abstract: This article examines the scientific and pedagogical significance of cognitive methods in preparing prospective primary school teachers to teach microtexts. It analyzes instructional methods that foster the development of learners' competencies in perception, analysis, logical thinking, information transformation, and content reconstruction through work with microtexts. The paper also systematizes the scholarly views of Uzbek and international educational researchers on cognitive approaches and metacognitive strategies. Furthermore, it provides a theoretical justification for the pedagogical potential of teaching microtexts, its alignment with the requirements of international assessment programmes such as PIRLS and PISA, and its role in developing the professional and methodological competencies of prospective primary school teachers.

Key words: cognitive methods, metacognition, microtext, primary education, PIRLS, reading literacy, cognitive competence, graphic organizers.

Аннотация: В данной статье раскрывается научно-педагогическое значение когнитивных методов в подготовке будущих учителей начальных классов к обучению работе с микротекстами. Анализируются методы, способствующие развитию у студентов, а в дальнейшем и у учащихся начальных классов, компетенций восприятия, анализа, логического мышления, преобразования информации и реконструкции содержания в процессе работы с микротекстами. Кроме того, систематизированы научные взгляды узбекских и зарубежных учёных-педагогов на когнитивный подход и метакогнитивные стратегии. Научно-теоретически обоснованы педагогические возможности обучения работе с микротекстами, его соответствие требованиям международных программ оценки качества образования PIRLS и PISA, а также роль данного направления в формировании профессионально-методических компетенций будущих учителей.

Ключевые слова: когнитивные методы, метакогниция, микротекст, начальное образование, PIRLS, читательская грамотность, когнитивная компетенция, графические органайзеры.

KIRISH

Bugungi kunda jahon ta'lim makonida o'quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish, matn ostidagi yashirin ma'nolarni anglash hamda tanqidiy va kreativ fikrlashni shakllantirish global tendensiyaga aylandi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning matnni anglash, uning tarkibiy qismlarini tizimli tahlil qilish va undan xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish keyingi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatni belgilaydi ^[8].

Xalqaro PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) tadqiqotlari ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining aynan matnni to'g'ri idrok etish va interpretatsiya qilish darajasini baholashga qaratilgan ^[7]. Shu nuqtayi nazardan, oliy pedagogik ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mikro



matnlarni samarali o'qitishga, kognitiv metodlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etishga tayyorlash dolzarb pedagogik muammo va strategik vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kognitiv pedagogika va psixolingvistika sohasidagi yutuqlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim oluvchining bilimni qabul qilish, qayta ishlash, tizimlashtirish hamda amaliyotda qo'llash jarayonlari uning ichki aqliy operatsiyalari bilan bevosita bog'liq ^[1].

O'zbek pedagog olimlari ham ta'lim jarayonida shaxsning bilish ehtiyojlarini faollashtirish zarurligini alohida ta'kidlaydilar. Xususan, pedagog olim O'. Tolipov dars jarayonida talabalarning aqliy refleksiyasini uyg'otish dars samaradorligining bosh mezonini ekanligini qayd etgan ^[11]. Mazkur yondashuv mikro matnlarni o'qitishda ham yuqori samara beradi. Mikro matnlar cheklangan hajmda katta axborot yukini tashishi sababli, ular bilan ishlash talabalardan mantiqiy-semantik aloqalarni tezkor aniqlash hamda bilimlarni konstruktiv tarzda o'zlashtirishni talab etadi.

Kognitiv yondashuvning konseptual asoslari J. Piaget, L. Vigotskiy va J. Bruner kabi olimlarning ilmiy maktablariga borib taqaladi. Zamonaviy ta'limda ushbu qarashlar konstruktivizm nazariyasi doirasida rivojlanib, bilimni tayyor holda uzatish emas, balki uni ta'lim oluvchining o'zi aqliy operatsiyalar yordamida "qurishi" (construct) zarurligini asoslaydi ^[2].

O'zbekiston pedagogika fanida matn ustida ishlashning kognitiv va konseptual muammolari Sh. Yusupova tomonidan keng tadqiq etilgan. Olimaning fikricha, matnni shunchaki o'qish nutqiy ko'nikma hisoblansa, uning tub mohiyatini anglash hamda undagi kognitiv kodlarni ochish aqliy-semantik kompetensiya hisoblanadi ^[13].

Shuningdek, tilshunos olim H. Ne'matov matn tahlilida lisoniy birliklarning vazifaviy va kognitiv imkoniyatlarini ochish orqali o'quvchida mustaqil fikrlash mexanizmini shakllantirish mumkinligini asoslaydi ^[3].

J. Flavell tomonidan kognitiv fanga kiritilgan metakognitsiya ("fikrlash haqida fikrlash") tushunchasi ^[3] o'zbek didaktikasida M. Asadov tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Olim bo'lajak o'qituvchilar dars jarayonida o'quvchilarning o'zlashtirish faoliyatini nazorat qila olish metako'nikmasiga ega bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi ^[14].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida tizimli-tahliliy va qiyosiy-pedagogik yondashuvlardan foydalanildi. Xususan, kognitiv psixologiya, matn lingvistikasi, metakognitiv strategiyalar hamda boshlang'ich ta'lim metodikasiga oid ilg'or xalqaro va mahalliy ilmiy-metodik adabiyotlar tahlil qilindi. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish maqsadida modellashtirish hamda didaktik materiallarni kognitiv tahlil qilish metodlari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Matn lingvistikasida mikro matn hajman ixcham (odatda 3-7 gapdan iborat), biroq semantik va kommunikativ jihatdan tugallangan, ichki mantiqiy-strukturaviy izchillikka ega bo'lgan nutqiy birlikdir. Professor N. Mahmudov matnning lingvopragmatik xususiyatlarini tadqiq etar ekan, matnning hajmi uning mazmuniy tugallanganligini cheklay olmasligini, aksincha, ixcham matnlarda ma'no konsentratsiyasi yuqori bo'lishini ta'kidlaydi ^[6].

Boshlang'ich ta'lim amaliyotida didaktik jihatdan moslashtirilgan mitti hikoyalar, masallar, maqollar, topishmoqlar, qisqa axborotlar va tavsiflar mikro matnlarning asosiy ko'rinishlari hisoblanadi. Kognitiv nuqtayi nazardan mikro matnlar kichik yoshdagi o'quvchilarning diqqat hajmi va ishchi xotira imkoniyatlariga to'liq mos keladi. Rus va G'arb olimlari buni kognitiv yuklamani muvozanatlash (cognitive load) deb ataydilar ^[10].

O'zbek metodist olimi A. G'ulomov esa ona tili darslarida "ortiqcha lisoniy yuklamadan qochish va o'quvchi tafakkurini lisoniy birlikning mag'zini chaqirishga yo'naltirish" g'oyasi orqali ushbu yondashuvni asoslagan ^[4].

Mikro matnlar bilan ishlash o'quvchilarda quyidagi to'rtta xalqaro e'tirof etilgan kognitiv jarayonni samarali rivojlantiradi:

- to'g'ridan to'g'ri berilgan axborotni aniqlash;
- to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish;
- g'oyalar va axborotni integratsiya qilish hamda interpretatsiya qilish;
- matn mazmuni va til birliklarini baholash hamda tanqidiy tahlil qilish.

Oliy ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik mahoratini oshirishda quyidagi kognitiv texnologiyalar yuqori samara beradi.

Ushbu metod mikro matndagi tayanch tushunchalar va mantiqiy bog'lanishlarni ierarxik grafik shaklda tasvirlashga asoslanadi. Talabalar matn komponentlarini makrostruktura va mikrostruktura darajasida ajratishni

o'rganadilar^[11]. Bu usul axborotni qabul qilishdagi vizual-fazoviy kognitiv kanallarni faollashtiradi. Mikro matndagi kalit so'z yoki konseptni chuqur tahlil qilish uchun mo'ljallangan grafik organayzer hisoblanadi. Unda biror tushunchaning: ta'rifi; xususiyatlari; misollari; qarshi misollari (aks misollari) jadval ko'rinishida tahlil qilinadi. Mazkur metod talabalarda tushunchalarni differensiyalash (farqlash) ko'nikmasini rivojlantiradi.

Mikro matn ustida ishlashda faqat faktik ("Kim?", "Nima?", "Qayerda?") savollar bilan cheklanilmay, Bloom taksonomiyasining yuqori bosqichlariga (tahlil, sintez va baholash) yo'naltirilgan kognitiv savollar tizimi shakllantiriladi^[1]. Misollar: Interpretativ savol: "Qahramonning ushbu xatti-harakatiga matndagi qaysi yashirin sabab turtki bo'lgan?" Reflektiv (tanqidiy) savol: "Muallif ilgari surgan g'oya bugungi hayotimizda qanchalik real asosga ega?" Bu metodda mikro matnning syujet chizig'i ataylab uzib qo'yiladi yoki yakuni ochiq qoldiriladi. Talabalardan kognitiv prognozlash (prediction) mexanizmi asosida matnning ehtimoliy davomini yoki muammoning muqobil yechimlarini ishlab chiqish talab etiladi^[4]. Mikro matnlarni kognitiv metodlar yordamida o'qitish texnologiyasini o'zlashtirish bo'lajak o'qituvchilarda integrallashgan kasbiy kompetensiyalarni shakllantiradi^[4; 11].

1-jadval: Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shakllantiriladigan kognitiv kompetensiyalar

Shakllanadigan Kompetensiya	Kompetensiyaning kognitiv mazmuni va namoyon bo'lishi
Matn tahlili kompetensiyasi	Matnning lingvistik, semantik va pragmatik qatlamlarini mustaqil ajarata olish ^[6] .
Metodik-modellashtirish	Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yosh xususiyatiga mos kognitiv topshiriqlar tizimini tuza olish ^[11] .
Raqamli-kognitiv savodxonlik	Grafik organayzerlar va konseptual xaritalarni raqamli vositalar (Miro, Canva, Coggle) yordamida loyihalash.
Pedagogik refleksivlik	Dars jarayonida o'qituvchilar duch keladigan kognitiv qiyinchiliklarni (to'siqlarni) oldindan ko'ra bilish va korreksiya qilish ^[11; 14] .

XULOSA

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mikro matnlarni o'qitishga tayyorlash tizimini an'anaviy reproduktiv yondashuvdan kognitiv-konstruktivistik paradigmaga o'tkazish bugungi kunning dolzarb talablaridan biridir. O'zbek pedagogika fani va metodikasining ilg'or vakillari tomonidan ilgari surilgan ilmiy g'oyalar shuni ko'rsatadiki, konseptual xaritalash, Frayer modeli hamda kognitiv savollar tizimidan foydalanish talabalarning fikrlash doirasini kengaytiribgina qolmay, ularni maktab amaliyotida o'qish savodxonligi daralarini xalqaro standartlar (PIRLS) talablari asosida tashkil etishga ham tayyorlaydi^[7]. Mikro matnlar bilan tizimli kognitiv ishlash talabalarning axborot resurslari bilan ishlash madaniyatini yuksaltiradi, ularning analitik fikrlashini rivojlantiradi hamda pedagogik kreativligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Anderson L. W., Krathwohl D. R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman, 2001. – 352 p.
- Bruner J. S. The Process of Education. – Cambridge: Harvard University Press, 1960. – 118 p.
- Flavell J. H. Metacognition and Cognitive Monitoring: A New Area of Cognitive-Developmental Inquiry. // American Psychologist. – 1979. – Vol. 34. – № 10. – P. 906-911.
- G'ulomov A., Yo'ldoshev J., Shodiyev S. Ona tili o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 340 b.
- Asadov M. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining metakognitiv ko'nikmalarini rivojlantirish // Pedagogik mahorat. – Buxoro, 2023. – № 2. – B. 12-18.
- Mahmudov N. Matn lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 176 b.
- Mullis I. V. S., Martin M. O. PIRLS 2021 Assessment Frameworks. – Chestnut Hill, MA: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College, 2021. – 185 p.
- Ne'matov H., Bozorov O. Til, tilshunoslik va matn tahlili // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2018. – № 5. – B. 14-19.
- OECD. PISA 2022 Results (Volume I): The State of Learning and Equity in Education. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 290 p.
- Piaget J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 1950. – 212 p.
- Sweller J. Cognitive Load Theory. // Psychology of Learning and Motivation. – 2011. – Vol. 55. – P. 37-76.
- Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: Science, 2021. – 214 b.
- Vygotsky L. S. Thought and Language. – Cambridge: MIT Press, 1986. – 287 p.
- Yusupova Sh. Boshlang'ich sinflarda matn ustida ishlashda kognitiv yondashuv // Pedagogika va psixologiya integratsiyasi. – Toshkent, 2022. – № 4 (2). – B. 45-51.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.